



EZGULIKNI ABADIYLIGIGA ISHONAMAN

Davranova Malika

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy hodimi

Buyuk alloma imom al Buxoriyning xotirasini abadiylashtirish maqsadida qurilgan majmuaning ochilish marosimida soʻz olgan misrlik imom shunday degan edi:” Dunyoda eng kop buyuk shaxslarni yetkazib bergan Sizning yurtingizda muqaddas yer dunyoning hech qayerda yoʻq. Men yurtga taʻzim qilaman”, - deb yerga taʻzim qilgan edi. Ha bu yurt ulugʻlar, aziz zotlar, ulamolar yurti.

Mana shu muqaddas ona yurtimiz oʻtgan asrda mustamlaka tizimida aziyat chekdi. Buyuk bobolarning avlodlari yashagan mamlakat turli sinovli kunlarni boshdan kechirdi. Hudoga shukurlar boʻlsinki, qurilayotgan, pokizalik, mustaqillik kunlariga ham yetib keldik. Oʻtgan 33 yilda yurtimizda koʻplab ezgu ishlar amalga oshirildi. Moʻtabar qadam joylarimiz tiklanib, ulugʻlarimiz nomi abadiylashtirildi. Bu ishlar hali ham davom etmoqda.

Bizga maʼlumki, Odam alayhissalom avlodlari tarixi moddiy va maʼnaviy madaniyati muzeylarda saqlanib, avloddan-avlodga eng qimmatli meros sifatida oʻtib kelmoqda. Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspeditsiyalariga qoʻyilgan bugun mavjud boʻlmagan 10 ming yillar avval qirilib ketgan karkidonning (ilmiy nomi indrokoteriy) boshsuyagi, uning balandligi 5 m ga yetib, oʻz davrida yer kurrasidagi eng yirik sut emizuvchi hayvonot dunyosi vakillaridan biri sanalgan yoki eramizdan avvalgi ikkinchi uchinchi asrlarda sak jangchisining har birida boʻlishi shart hisoblangan xanjar, Popdagi munchoq tepa darvozasidan 1987yili topilgan 45ta qamish tobut unda topilgan turli yoshdagi insonlarning jasadi qoldiqlari qariyb bir yarim ming yil avvalgi ajdodlarimizdan maʼlumot beradi. Shundan 22 tasigina saqlanib qolishga erishildi. Sagʻana ichidan topilgan buyumlar: yogʻoch, sopol idishlar, savollar, minglab munchoqlar va boshqa uy-ruzgor ashyolari saqlanmoqda. Bunday noyob asholarining koʻpligidan aqlingiz shoshadi.

Afsuski, muzeylardan mafkuraviy maydon sifatida foydalanishga zoʻr berildi. Ekspozitsiyalar tarixiy taraqqiyotni korsatuvchi ashyo emas, balki mafkuraga



xizmat qiluvchi jismlarga aylandi. Tarix buzib ko'rsatildi, ko'p hollarda soxtalashtiriladi. Bugungi kunimizda muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimizning odimlarni aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g'urur, iftixor, vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish yo'lida keng foydalanish boshlandi. Muzeylar rivoji yo'lida qator me'yoriy-hujjatlar (farmon, qonun, qarorlar) qabul qilinishi sohaning asosiy vazifalarini belgilab berdi.

Namangan viloyatida ma'naviyat o'chog'i hisoblangan Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi nafaqat Farg'ona vodiysida, balki O'zbekistondagi qadimiy madaniyat muassasalaridan hisoblanadi. Bu ilmiy dargoh 1920 yilda tashkil etilgan bo'lsa 1968-yilda viloyat o'lkani o'rganish Muzeyi, yaqin yillardan esa Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi deb atala boshlandi. Muzey xazinasida 110 mingdan ortiq eksponat mavjud bo'lib, shundan 5 mingdan ortiq noyob eksponatlardir. Muzeyimiz tashrif buyuruvchilarning xordiq chiqarishi, axborotga ega bo'lishini taminlab, jamiyatning madaniy rivojiga ham katta hissa qo'shib kelmoqda.

Hammamizga ma'lumki, muzeydagi hech bir ashyo o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Muzey mutaxassislari tomonidan ma'lum maqsadni ko'zlangan holda muzey eksponatlari qatoriga qo'shiladi. Agar tashrif buyuruvchilarning dunyoqarashi va tushunchasi muzey mutaxassislarning madaniy va ilmiy tushunchasiga mos kelsa, ular orasida muloqot kelib chiqadi, ashyolarning haqiqiy qadri yaqqol anglanadi.

Muzeyda ushlaydigan dastasi yoq ob dasta bor, manbalarda aytilishicha oftobaning qo'sh qo'llab ushlagan holda quyib egallab, mehmon qo'liga suv quymoq- oftobadagi suvning issiq yoki sovuqligini bilish bilan birga mehmonga hurmat ifodasidir. shu birgina udum -belgi ham millat yuzini ko'rsatib turibdi. Muzey mutaxassislari va tashrif buyuruvchilar tomonidan ashyoning asl qiymatiga to'g'ri baho bermasa orada anglashilmovchilik vujudga keladi va muloqot buziladi. O'zaro muloqotning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, ashyoga baho berishda fikrlar uyg'unligini ta'minlash yoki eksponat namoyish qilishning o'zgacha yo'llarini qo'llash lozim. Masalan: har bir mijoz ko'rgazma va eksponatning dramaturg



senariysini yaratish, bunda jihozlarning o'ziga xos tarixi, xususiyati, ahamiyatini zamonaviy texnologiyalar yordamida aks ettirishga ettirish darkor. Muzeyimizda mamlakatda sanoqli bo'lgan misdan yasalgan yaxdonlardan biri ekspeditsiyaga qo'yilgan. 19-asrga ta'aluqli bo'lib, o'sha davr misgarlari unga bolg'alash yo'li bilan shakil berib misday injiq ashyodan ustiga nafis naqshlar o'yib, shunday mahorat va sabr bilan yasaganki, uni san'at asari darajasiga ko'tarishgan, yaxdonning devoriga 2 -qavat qilib ishlangan. Qavatlar orasidagi boshliq-vakum izolyatsiyasi vazifasini bajargan.

Buning samarasi o'laroq, idishdagi sovuq yoki aksincha, mahsulotlar o'z holatini uzoq vaqt saqlab turgan. Ha ajdodlarimiz yuksak tafakkur sohiblari bolishganidan faxrlanamiz. Bu moviy dars xonasida noyob eksponatlarni namoyish qilish orqali xalqimiz ayniqsa yoshlar ongida umumbashariy merosimizga hurmat-ehtirom tuyg'ulari masalalariga katta e'tibor berilgani haqiqatdir. Negaki sharq mamlakatlarida faoliyat ko'rsatayotgan aksariyat muzeylar bugun o'ziga xos ko'ngilochar maskani yodga solidi. Ba'zi mutaxassislariga bu ijodiy jarayon bolib tuyulishi mumkin, chunki tashrif buyuruvchilarning ko'payishi katta daromad keltiradi, ammo bu tajriba muzeyning jamiyatdagi mavqeini pasaytirishga olib kelmoqda. Natijada tashrif buyuruvchilar orasida tarixiy ashyolar, noyob eksponatlariga bo'lgan qiziqishi so'nib boradi. Aytish joizki bizning muzeyimizning oldida turgan asosiy vazifa xalqimizning tarixi, madaniyati, san'ati, ilmiy qadriyatlarini targ'ib qilishga qaratilgan. Muzeyning maktablar va boshqa o'quv yurtlari bilan uzviy aloqalari mustahkamlanganligi, turli fanlar bo'yicha ochiq yoki ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan ma'ruzalar asosida darslar o'tilyatganidan juda xursandmiz. O'quvchilar darslaridan tashqari muzeyida ko'rgan, eshitganlari haqida malumot oladilar. Bu esa yoshlar tafakkurini kengayishida va mustaqil fikrlashga o'rganishda muhim bosqich hisoblanadi. Qolaversa o'quvchi o'tilgan mavzuni uzoq muddat xotirasida saqlab qolishga erishadi. Chunki, inson xotirasida o'qishga nisbatan, ko'rib eslab qolish qobiliyati kuchli.

Muzeyimiz ta'mirlanib o'zgacha chiroy kasb etib, tashuvchilarning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bugun muzeyning vazifasi nafaqat madaniy merosini saqlash va targ'ib qilish, balki bu merosini zamondoshlarimizning ijodiy faoliyati orqali yanada boyitishdan iborat. Muzeydagi asori- atiqalarni o'zgacha mehr va



qiziqish bilan tomosha qilayotgan turli yoshdagi hamyurtlarimizni, shahrimiz mehmonlarni ko‘rib, ezgulikni abadiylikiga ishonдим. Chunki, tariximizni chuqur o‘rganish, milliy qadriyatlarimizdan tahsil olish bizni ruhan boyitadi. Milliy g‘urur va iftixor vatanga muhabbat tuyg‘ulari ustuvor bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zb.1 prz.Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak” Toshkent 1998yil
2. O‘zb.1 prz.Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch” Tashkent 2008 yil
3. Elizavetin. G. “Pulnoma” Toshkent 1979 yil Pidaev. Sh. “Tangalar davr ko‘zgusi” Toshkent 1984yil
4. Moziyedan sado ilmiy-amaliy,ma’naviy-marifiy jurnal 4.(60).2020 yil soni.
5. Sanat jurnal.2/2016 yil soni.
6. Sanat O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali 1/2020 yil №57
7. Tamaddun Tariximizni o‘rganamiz 6-son 2020 y
8. Namangan sadosi gazeta 3 soni aprel’.
9. Namangan haqiqati 4 soni 2019 y